

**JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHNI AMALGA
OSHIRADIGAN ORGANLAR TOMONIDAN QONUNLARNING IJRO
ETILISHI USTIDAN PROKUROR NAZORATI TUSHUNCHASI,
PREDMETI VA VAZIFALARI**

*Nishonboyeva Dilrabo Shuhrat qizi
Toshkent viloyati yuridik texnikum o'quvchisi*

Annotatsiya: Maqolada huquqiy tizin tushunchasi, huquqiy normasi haqida bayon qilingan

Kalit so'zlar: Jinoiy sudlov, tergov, jinoyat ishlari.

Jinoyatchilikka qarshi kurash, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish, surishtiruv o'tkazish, dastlabki tergovda qonunlarning aniq bajarilishi ustidan prokuror nazoratini ta'minlash jarayonida prokuraturaning huquqni muhofaza qiluvchi boshqa idoralar bilan hamkorligi natijasida jinoyatchilik ildiziga bolta uriladi va jamiyatda fuqaro va insonlarning tinch-xotijam yashab, ishslashlari uchun zamin yaratiladi, jinoyatchilik dinamikasida barqarorlik vujudga keladi. Qonuniylikni mustahkamlash va jinoyatchilikka qarshi kurashni, fuqarolami konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini himoya qilish ishlarini tashkil etish, jinoyatchilikning og'irva o'ta og'ir turlariga qarshi kurash, ayniqsa, uning uyushgan shakliga nisbatan murosasiz kurash uchun prokuror tomonidan jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatini samarali bajarish uchun jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar tomonidan qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishini ta'minlash, bu borada prokuror nazoratini susaytirmaslik juda muhimdir. Prokurorning jinoyat protsessual qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tergovoldi tekshiruvi o'tkazish, jinoyat ishlari qo'zg'atish va tergov qilish bilan bog'liq ko'rsatmalari surishtiruv va dastlabki tergov organlari uchun majburiydir. Jinoyatlar to'g'risidagi arizalar va xabarlarni ko'rib chiqish hamda hal qilish va

tergovni olib borishning qonun hujjatlarida belgilangan protsessual tartibi, shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlaming qonuniyligi jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlarning qonunlarni ijro etishlari ustidan nazorat predmeti hisoblanadi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshirish m aqsadi respublikamizda yangi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar yuzaga kelganligi sababli huquqiy demokratik davlatni shakllantirish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish kabi dolzarb vazifalami amalga oshirish bilan chambarchas bog'liqdir. Aynan shu holat prokuratura organlarining jinoyatchilikka qarshi kurash hamda qonuniylikni ta 'minlash borasidagi faoliyatiga tubdan yangicha yondashish Jozimligini hayotiy zarurat sifatida keltirib chiqarmoqda. O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 28-moddasida jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi prokurorning vakolatlari belgilangan bo'lib, sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish hamda hal etish to'g'risidagi qonun talablari ijrosini har oyda kamida bir marta tekshiradi, jinoyat ishlarini qo'zg'atadi yoki ularni qo'zg'atishni rad etadi, jinoyat ishlarini tugatadi, yoxud "tilar yuzasidan ish yuritilishini to'xtatadi. Jinoyat ishini qo'zg'atish, dastlabki tergovni to'xtatish va tugatishning qonuniyligi ustidan nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining JP kodeksi va «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunga asosan prokurorlarga yuklatilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi JPKning 33-moddasida qayd etishicha, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida O'zbekiston Respublikasi qonunlarining aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Prokuror surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida qonunning buzilishini, kim tomonidan sodir etilganligidan qat'i nazar, bartaraf etish uchun qonunda nazarda tutilgan chora-tadbirlami o'z vaqtida ko'rishi shart. Prokuror o'z vakolatlarini har qanday organ va mansabdor shaxsdan mustaqil ravishda, faqat qonunga bo'ysunib

va O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori ko‘rsatmalariga tayangan holda amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasining «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonuni 27-moddasida jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tom onidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat predmeti belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, jinoyatlar to‘g‘risidagi arizalar va xabarlarni ko‘rib chiqish hamda hal qilish va tergovni olib borishning qonun hujjatlarida belgilangan protsessual tartibi, shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning qonuniyligi jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlaming qonunlami ijro etishlari ustidan nazorat predmeti hisoblanadi. Ushbu Qonunning 28-moddasida prokurorning vakolatlari qatoriga:

- jinoyat ishlarini qo‘zg‘atishi mumkinligi;
- jinoyat ishlarini qo‘zg‘atishni rad etishi mumkinligi;
- jinoyat ishlarini tugatishi mumkinligi;
- ehtiyyot chorasi sifatida qamoqqa olish uchun sudga iltimosnomaga bilan murojaat qilishi;
- jinoyat ishlari yuzasidan ish yuritilishini to‘xtatishi mumkinligi;
- qonunda nazarda tutilgan hollarda tergovchining ishni tugatishiga rozilik berishi;
- ayblov xulosasi yoki qarorini tasdiqlashi, ishni sudga yuborishi vakolatlari belgilangan.

Jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatining yuragi tergov faoliyatini tashkil etish hisoblanadi. Shuning uchun tergov faoliyatini boshqarishni to‘g‘ri tashkil etish asosiy mezondir. Bu borada tergov boshqarmasi (bo‘limi)da ishni tashkil etish bo‘yicha asosiy vazifalar quyidagilardir:

- tuzilishi va shtatlar bo‘yicha optimal bo‘lgan malakali xodimlar bilan to‘ldirilgan tergov apparatini shakllantirish;
- fuqarolarning (jinoyat protsessining barcha ishtirokchilarining) huquq va erkinliklarini ta’minlash mexanizmi mushtarakligida tergov faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ilmiy tavsiyalarni amaliyotga joriy qilish;
- jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatini amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar, chet el huquqni muhofaza qiluvchi organlarining hamda respublikamiz huquqni muhofaza qiluvchi organlarining ilg‘or tajribalarini yoyish;
- tergov faoliyatida jinoyatlarni aniqlash, fosh qilish, dalillarni topish, olish, protsessual mustahkamlash, isbotlashga qaratilgan xatti-harakatlarni amalga oshirishda zamonaviy

texnikalarni qo'llash orqali ishning tashkiliy darajasini takomillashtirish; • prokuror va tergovchilarning faoliyati samaradorligini oshirish, ish vaqtini, kuchini, modiy vositalar va imkoniyatlami bekorga sarflamaslik va bu boradagi keraksiz yo'qot ishni bartaraf etish; • ushbu vazifalami hal etish boshqarma (bo'lim) boshqaruvi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rbbosarlari buymqlari, ko'rsatmalar, hay'at va Muvofiqlashtiruvchi kengash qarorlari asosida uch asosiy yo'naliш bo'yicha amalga oshirilishi mumkin: • jinoyatlami tergov qilishda qonuniylikni nazorat qilish bo'yicha ishni tashkil etish; • jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha ishni tashkil etish; • prokuratura idoralari tergovchilarining o'zlari xizmat qiladigan hududlardagi ishi ustidan rahbarlikni ta'minlash1. Prokuror ushbu faoliyatlarini qonuniylik, birlik, markazlashganlik, mustaqillik va oshkorlik kabi prinsiplarga rioya qilgan holda amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi prokururasi Tergov Bosh boshqarmasi, boshqarma va bo'limlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlar, Toshkent shahar, Transport, Harbiy prokurorlari barcha imkoniyatlarini huquqbazarlikning oldini olish, har bir jinoyatni ochish, tergovni har tomonlama, to'la va xolisona o'tkazilishi hamda jazo muqarrarligini ta'minlash, jinoyatni keltirib chiqaruvchi shartsharoitlar sabablarni aniqlash, ulam i bartaraf qilish choralarini ko'radilar. Ish samaradorligini oshirish maqsadida: Tergov Bosh boshqarmasi, boshqarma va bo'Mimlari jinoyatlarning og'ir va o'ta og'ir turlariga, ayniqsa, uning uyushgan guruhlar yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilishi hollariga, o'qotar qurollar va portlovchi moddalarni ishlatish, shaxsni garov sifatida tutqinlikka olish, bosqinchilik, banditlik, jinoiy uyushma tashkil etish, terrorizm, ommaviy tartibsizliklar, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarini qonunga xiлоf ravishda o'tkazish kabi jinoyatlarga qarshi kurashni kuchaytirish choralarini ko'radilar. Jinoyatchilik ahvolini chuqur o'r ganib, tahlil etib, dastlabki tergov va surishtiruv o'tkazish bosqichlarida, qonunlami qoilash amaliyotidan kelib chiqqan holda tergov boshqarmasi, bo'limlari ishlarini lozim darajada tashkillashtiradilar. Boshqa tarkibiy tarmoqlardagi bo'lim va boshqarmalar bilan hamkorlik rivojlantiriladi. Tuman, shahar va ularga

tenglashtirilgan prokurorlarga zarur bo‘lgan tashkiliy-uslubiy ko‘rsatish bilan birga, ularni tahliliy axborot jihatdan ta’minlash va ish yuritishni soha-mintaqa uslubida olib borishni takomillashtirish zarur.

0‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2007-yil 20-noyabrdagi «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o‘tkazilishi munosabati bilan fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasini samarali ta’minlash yuzasidan prokuror nazoratini kuchaytirish to ‘g‘risida»gi 69-buyrug‘ida quyidagilar qayd etilgan: Mustaqillik yillarda davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalari um um e’tirof etilgan demokratik g‘oyalar, milliy qadriyatlar, O ‘zbekiston o‘zi tanlagan rivojlanish va taraqqiyot y o ii asosida tubdan isloh qilinmoqda. Inson, uning hayoti, huquq va erkinliklari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida eng oliv qadriyat sifatida e’tirof etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. М .Г ‘. Esanov, S.Y. Polvonov. Tergov va surishtiruv ustidan nazoratni tashkil etish. Т., 1998, 3-bet.
2. M. Esanov, S. Y. Polvonov. Tergov va surishtiruv ustidan nazoratni tashkil etish. Т., 1998
3. В.М. Савицкий. Защитить государственное обвинение в суде. М. «Юридическая литература», 1978.
4. О.М. Madaliyev. Sud tergovi jarayonida prokuorning protsessual mavqeyi va ayblovni isbotlash majburiyati. O ‘quv-uslubiy qo‘llanma. Т., TDYI, 2006
5. А.Д. Берензон, В.Г. Мелкумов. Работа прокурора по общему надзору. М., 1974